

Toshkent viloyati Angren shahar XTMFMT va TEBga  
qarashli 13- umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich  
sinf o'qituvchisi ABDURAHMONOVA DILRABO  
ERKINOVNAning 1 - sinfda matematika darsidan "O'nliklar  
ustida amallar" mavzusida tayyorlagan 1 soatlik namunali  
dars ishlanmasi.

(mazkur dars ishlanmasi 30- 36 nafar o'quvchi ishtrok  
etgan dars uchun mo'ljallangan)

MAVZU: O'NLIKLAR USTIDA AMALLAR.

MAQSAD: A) Ta'limiy: Ikki xonali sonlar, 21 – 100 ichidagi sonlar, 100 ichida qo'shish va ayirish mavzusi yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlash.

B) T arbiyaviy: O'quvchilar o'rtasida o'zaro do'stona munosabatlarni shakllantirish. Buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanish , ularning ibratli ishlaridan o'rnak olish kabi fazilatlarni tarbiyalash.

V) Rivojlantiruvchi: Ikki xonali sonlarni yozilishi va o'qilishini bilib olish. Olingan bilim, ko'nikma va malakalardan kundalik hayotda foydalanish.

DARS TURI: aralash, mustahkamlovchi.

DARS METODI: sayohat , guruhlarda ishlash, musobaqa.

DARS JIHOZI: Mavzu mazmuniga doir ko'rgazmali rasmlar, tarqatmali materiallar , rasmi masalalar, proyektor , ekran. Didaktik o'yinlar.

DARSNING BORISHI:

TASHKILIY QISM: - O'quvchilar diqqatini darsga jalb etish .

-O'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish .

- “RAQAMLAR SO'ZLASIN” o'yini orqali o'quvchilar bahor faslining mart oyidagi muhim sanalar haqida ma'lumotlar beriladi.

-Bu o'yin shartiga ko'ra o'quvchilar sinf doskasiga avvaldan ilib tayyorlab qo'yilgan 8; 1; 21; 22 raqamlarni , bahor faslidagi muhim sanalar bilan bog'lab aytib beradilar.

OQITUVCHI : Bolajonlar hozir o'lkamizda qaysi fasl mehmonda?

-Bahor fasli.

- Bahor faslining qaysi oyi? ( - Bahor faslining mart oyi.)

- Sinf doskasidagi raqamlarni mart oyidagi muhim voqealar bilan bog'lang.

- 1- MART – bahorning birinchi kuni va Zulfiyaxonimning tavallud kuni.

- 8-MART – Onajonlar bayrami.- 21-MART – Navro'z ayyomi.

- 22- MART – Mirzo Ulug'bek bobomizning tavallud ayyomi.

O'TILGAN MAVZUNI MUSTAHKAMLASH:

O'QITUVCHI BAYONI:

-Aziz o'quvchilar biz matematika darsida avvalgi darsda qanday mavzuni o'rgangan edik?

- O'nliklar ustida amallar mavzusini o'rgangan edik.

-Bu mavzu orqali siz nimalarni bilib oldingiz?

- 100 ichida qo'shish va ayirishni o'rganib oldik.

- Ikki xonali sonlarning o'qilishi va yozilishini bilib oldik.

-Bolajonlar bugun biz siz bilan shu mavzular yuzasidan egallagan bilimlarimizni mustahkamlab, yangi ma'lumotlar bilan boyitamiz.

Bugungu darsimiz avvalgi darslarimizdan farq qiladi. Biz bugun matematika darsida siz bilan birgaikda sayohatga chiqamiz. Bugun sizlarga pochta orqali har biringizga alohida konvertlarda topshiriqlar kelgan. Bu konvertlar har biringizning partangiz ustiga qo'yib chiqilgan. Hozir siz shu konvertni ochib unda berilgan misollarni yechib , javoblari bilan moslashtirasiz. Javoblar yonida berilgan harflarni misol

raqamlari tartibida yozib chiqsangiz, bugun qayerga sayohat uyushtirishimiz ma'lum bo'ladi.

O'QUVCHILAR KONVERTNI OCHIB TOPSHIRIQNI BAJARADILAR:

(Bunday topshiriqni ular avval multimediya ilovalarning trenajyor mashqlari orqali ko'p bajarganliklari uchun, qiyinchilik tug'dirmaydi. Misollarni javoblari bilan moslashtirishda qora qalamdan foydalanadilar.

1) $60 + 7;$	45	( T )
2) $56 - 6;$	50	( R )
3) $40 + 5;$	67	( E )
4) $71 - 1;$	30	( K )
5) $38 - 8;$	70	( A )

E R T A K  
So'zi nosil bo'ladi

-Demak bolajonlar bugun biz siz bilan ertaklar olamiga sayohat qilamiz.

-Endi sizlar sinf doskasidagi yaproqlarda yozilgan sonlarning xona birliklarini to'g'ri aytib bera olsangiz, qaysi ertakka sayohat qilishimiz ham aniqlanadi.

-65; 74; 36; 51; 29; 43; 54; 18

-65- o'nliklari 6 ta, birliklari 5ta;

-74- o'nliklari 7ta, birliklari 4 ta;

Raqamlarni ortiga BO'G'IRSOQ so'zi yashiringan bo'ladi. O'quvchilar topshiriqni to'g'ri bajarish orqali bu so'zni ochadilar va qaysi ertakka sayohat uyishtirishlarini aniqlab oladilar.

Ekranida Bo'g'irsoq ertagining rasmi ko'rsatiladi:



ERTAKLAR OLAMIGA XUSH KELIBSIZ

YANGI MAVZU: Sinf o'quvchilari 3 guruhga ajratiladi:

1.Ulug'bek yulduzlari. 2.Beruniy avlodlari. 3.Al Xorazmiy izdoshlari.



-Nima uchun guruhlarni aynan shu insonlar nomi bilan nomlaganimni bilasizmi?  
- Bu insonlar matematika faniga ulkan hissa qo'shgan insonlar.  
- Bugun biz "Bo'g'itsoq" ertagiga sayohat qilish orqali Bo'g'isoqni barcha ertak qahramonlaridan qutqarib qolishimiz kerak, hatto tulkidan ham.  
Sinf doskasining ichki tomonga oldindan chizib tayyorlab, yopishtirilgan ertak rasmi ochiladi.



O'QITUVCHI NUTQI: Bir bor ekan bir yo'q ekan... O'zimizning zamonda bir chol bilan kampir bo'lgan ekan. Kunlardan birida cholning bo'g'irsoq yegisi kelib qolibdi. Kampir bo'g'irsoqni pishirib, sovutish uchun deraza yoniga qo'yibdi. Bo'g'irsoq sovigach, zerikib, u yerdan dumalab tushib, o'rmonga qochib ketibdi.

Bolajonlar o'rmonda unga qanday hayvonlar uchrashini siz bilasiz. Ularning har biri bo'g'irsoqqa o'z topshirig'ini beradi. Bo'g'irsoq maktabda o'qimagan. Shu sababli unda topshiriqlarni bajarishda biz ko'mak beramiz. Agar bo'g'irsoq barcha topshiriqlarni to'g'ri va tez bajarsa, u sog'-salomat uyiga qaytib keladi.

-Har bir ertak qahramoni oldida cho'ntakcha bo'lib ushbu cho'ntaklarga topshiriqlar yozib joylangan bo'ladi. Har bir guruhdan navbat bilan o'quvchilar chiqib topshiriqlar bilan tanishadilar.



#### 1-TOPSHIRIQ:

Darslikda berilgan 4-masala uchun qisqa yozuv tuzing.

-Masala nima haqida ekan?

-Masalada nimalar ma'lum?

-Masalada nima noma'lum?

- Masala bizdan nimani topishimizni so'rayapti?

#### 4-MASALA (116-sahifa)

Karimning 10 ta kaptari bor. O'rtog'i Anvarning ham shunch kaptari bor. Ikkalasining kaptarlari nechta?

Karimda- 10 ta kaptar  
Anvarda ham shuncha kaptar.

? ta

Yechish:  $10 + 10 = 20$  ta kaptar.  
Javob: Ikkalasida 20 ta kaptar.

(Guruhlar masala shartini musobaqa tarzida tuzadilar. Har bir guruhdan o'quvchilar chiqib masala shartini doskada yozadilar. Guruhlarga rag'bat sifatida yulduzchalar berib boriladi.)

-Karimda 10ta kaptar bor. Anvarda ham shuncha. Demak Anvarda ham 10 ta. Ikkita o'nlik 20 bo'ladi.

2- TOPSHIRIQni o'quvchilar bo'ringing cho'ntakchasidan oladilar:

TAQQOSLANG:

-Proyektor orqali ekranda 5-misolda (116-sahifa) berilgan ifodalar namoyish etiladi. Har bir guruh bir donadan misolni yechib, izohlab beradilar.

-O'z topshirig'ini birinchi bo'lib bajargan guruh yana bir misolni yechish orqali, ortiqcha ballni qo'lga kiritishga muvassar bo'ladilar.



#### 2-TOPSHIRIQ:

1-guruh:  $10 + 20 * 30$

2 -guruh:  $30 - 10 * 40$

3 - guruh:  $20 + 40 * 40$

Chaqqon guruh uchun qo'shimcha

misol:  $50 + 10 * 80$

-O'quvchilar misolni yechib bo'lishgach har bir guruhdan o'quvchilar chiqib sinf doskasida misollarni bajarib, ifodani taqqoslaydilar.

IZOH:  $10+20=30$

10 va 20 ni yigindisi 30 ga teng.

30 soni 3 o'nlikdan iborat.

3 o'nlik va 3 o'nlik barobar.

$30=30$

DAM OLISH DAQIDASI: Musiqa qo'yib eshittiriladi. O'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda musiqa mos harakatlarni bajaradilar.

3- TOPSHIRIQ. Ayyiq polvon cho'ntagidan olib o'qib eshittiriladi.



### 3- TOPSHIRIQ:

Ekranda berilgan rasm va jadvaldan foydalanib masala tuzing. Masaladagi sonlarni o'zingiz istagan boshqa sonlar bilan almashtiring.

Masala yuzasidan savollar:

Masala nima haqida ekan? (Masala mevalar haqida ekan)

-Masalada nimalar ma'lum? (Masalada 40 ta olma borligi va 10 ta olma yeyilgani ma'lum)

-Masala nimani topishimizni so'ragan? (Nechta meva qolganini topamiz)

Yechish:  $40 - 10 = 30$  (ta olma)

Javob: Qoldi – 30 ta olma.

MUSTAHKAMLASH: O'quvchilar so'nggi topshiriqni bizga ayyor tulki beradi. U juda ayyor bo'lganligi uchun topshirig'i ham murakkabroq bo'ladi.

4-TOPSHIRIQ.



4- TOPSHIRIQ: Masalani har biringiz mustaqil ravishda yeching.


Yil davomida bir qishloqda 30 ta, qo'shni qishloqda 20 ta yangi uylar qurildi. Ikkala qishloqda hammasi bo'lib nechta uy qurilgan?

O'quvchilar masalani daftarlarida yechgunlariga qadar, o'qituvchi qatorlar oralab ularning yozuvlarini ko'zdan kechirib chiqadi.

-Masalani birinchi bo'lib bajarib bo'lgan o'quvchilar guruhlarga nomi berilgan Mirzo Ulug'bek, Beruniy, Al Xorazmiy bobolarimiz haqida ma'lumot berib o'tadilar.

-Barcha o'quvchilar masalani yechib tugatgacha ekran orqali masalaning to'g'ri yechimi ko'rsatiladi va o'quvchilar o'z do'stlarini ishini tekshiradilar.

“Misollarni yechib, rasmni bo'yang” topshirig'i multimediya ilovalardagi Paint daturi asosida bajariladigan mashqqa juda o'xshash. Bu orqali o'quvchilarni tez va to'g'ri hisoblashga o'rgatib boriladi. Bo'yashni birinchi bo'lib yakunlagan guruhga rag'bat kartochkasi beriladi.



**DARS YAKUNI:** Bo'g'irsoqni sog'- salomat uyga yetib kelganida o'quvchilar ko'magi uchun minnatdorchilik bildirilib, bu ishga boshqa guruhlarga nisbatan faolroq ishtrok etgan guruh aniqlanadi. G'olib guruh rag'bat yulduzchalarini sanash orqali aniqlanadi.

- Bugungi darsdan hulosa qilinib “ Kuch birlikda” maqoli izohlanadi.

-O'quvchilar izohli baholanadilar.

**UY VAZIFASI:** 116-sahifadagi 8- misolni bajarib kelish.

Darsning tashkili qismi	- 4 daqiqa
O'tilgan mavzuni mustahkamlash	- 10 daqiqa
Yangi mavzu -	- 18 daqiqa
Yanngi mavzuni mustahkamlash	- 10 daqiqa
Darsni yakunlash	- 3 daqiqa

